

## YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANIDA TA'LIMNING O'RNI HAMDA TARBIYA JARAYONI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI

**Murodova Mushtariy Azamatovna**

**Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.19810285>**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi yosh va pedagogik psixologiya fanining mazmunmohiyati, ta'limning shaxs rivojlanishidagi o'rni hamda tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liqligi keng yoritilgan. Shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'zaro ta'siri, ularning yosh xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi hamda barkamol shaxsni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, ta'lim, tarbiya, psixik rivojlanish, shaxs kamoloti, pedagogik jarayon, yosh xususiyatlari.

**Аннотация:** Данная диссертация в широком смысле охватывает сущность науки о молодежи и педагогической психологии, роль образования в личностном развитии и его неразрывную связь с процессом воспитания. Также анализируется взаимодействие образовательного и воспитательного процессов, их организация в соответствии с возрастными особенностями и их значение в формировании гармоничной личности.

**Ключевые слова:** психология молодежи, педагогическая психология, образование, воспитание, психическое развитие, личностная зрелость, педагогический процесс, возрастные особенности

**Abstract:** This thesis broadly covers the essence of the science of youth and pedagogical psychology, the role of education in personal development and its inextricable link with the upbringing process. It also analyzes the interaction of educational and upbringing processes, their organization in accordance with age characteristics, and their importance in the formation of a harmonious personality.

**Keywords:** youth psychology, pedagogical psychology, education, upbringing, mental development, personal maturity, pedagogical process, age characteristics.

**Kirish.** Yosh va pedagogik psixologiya fani insonning psixik rivojlanish qonuniyatlarini, ayniqsa ta'lim va tarbiya jarayonida yuz beradigan o'zgarishlarni o'rganadi. Ushbu fan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Yosh va pedagogik psixologiya fani insonning rivojlanish jarayonini, ayniqsa bolalik va o'smirlik davrlarida kechadigan psixik o'zgarishlarni chuqur o'rganishga qaratilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ushbu fan nafaqat insonning individual rivojlanish xususiyatlarini, balki uning ta'lim olish va tarbiya jarayonidagi psixologik jihatlarini ham tahlil qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta'lim va tarbiya masalalari yosh va pedagogik psixologiyaning markaziy tushunchalari hisoblanadi. Chunki insonning shaxs sifatida shakllanishi aynan shu ikki jarayonning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshadi.

**Ta'limiy:** O'quvchilarga yosh va pedagogik psixologiya fanida ta'limning o'rni, uning mazmuni hamda tarbiya jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi haqida nazariy bilimlar berish, ta'lim jarayonining psixologik asoslarini tushuntirish.

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, jamiyatga foydali shaxs bo'lib yetishishiga ko'maklashish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ongli munosabatni rivojlantirish.

**Rivojlantiruvchi:** Mustaqil fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, shaxsning intellektual va psixologik salohiyatini oshirish.

**Tayanch tushunchalar:** Ta'lim, tarbiya, rivojlanish, shaxs, pedagogik psixologiya, yosh xususiyatlari, o'qitish jarayoni, ijtimoiy muhit.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Yosh va pedagogik psixologiya fanida ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligini o'rganishda klassik va zamonaviy olimlarning ilmiy merosi muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzuni yoritishda E.G'oziyev ning ishlari, Lev Vygotsky va Jean Piaget kabi olimlarning nazariyalari asosiy metodologik baza bo'lib xizmat qiladi. Har bir olimning yondashuvi ta'lim jarayonining psixologik asoslarini turlicha yoritib bergan bo'lsa-da, ularning barchasi shaxs rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

**E.Go'ziyevning ilmiy qarashlari.** E.G'oziyev ning “Psixologiya”[1] (2002) asarida inson psixik jarayonlari, bilish faoliyati, sezgi, idrok, xotira, tafakkur va diqqat kabi asosiy psixologik kategoriyalar chuqur tahlil qilinadi. Ushbu asarda ta'lim jarayoni shaxsning kognitiv rivojlanishiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida qaraladi. O'qitish jarayonida o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi.

G'oziyev fikricha, ta'lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki shaxsning ichki psixologik tuzilishini o'zgartiruvchi faol jarayondir. Shu sababli o'qituvchi o'quvchining yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari va psixologik holatini inobatga olishi lozim. Bu yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. “Yosh davrlar psixologiyasi” [2] (2004) asarida esa E.G'oziyev inson rivojlanishini bosqichlarga bo'lib o'rganadi. Har bir yosh davrida psixik rivojlanishning o'ziga xos qonuniyatlari mavjudligi, ayniqsa bolalik va o'smirlik davrida ta'lim va tarbiyaning sezilarli ta'siri borligi ilmiy asosda yoritiladi. Ushbu asarda maktabgacha yoshda o'yin faoliyatining ustunligi, maktab yoshida esa o'quv faoliyatining markaziy o'rin egallashi batafsil tushuntiriladi.

**Vygotsky nazariyasining ahamiyati.** L.Vygotsky ning “Pedagogik psixologiya”[3] (1991) asari ta'lim va psixik rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni yangi ilmiy darajaga olib chiqdi. Uning eng mashhur nazariyasi — “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi — bugungi zamonaviy pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Vygotskyga ko'ra, bola mustaqil bajara oladigan vazifalar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Aksincha, u kattalar yoki bilimdon shaxslar yordamida bajariladigan murakkab vazifalar orqali rivojlanadi. Bu jarayon ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasini ochib beradi. Ya'ni, ta'lim faqat mavjud bilimni mustahkamlash emas, balki yangi psixologik imkoniyatlarni shakllantirish vositasidir. Shuningdek, Vygotsky ijtimoiy muhitning rolini ham alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, har qanday psixik rivojlanish avval ijtimoiy darajada yuz beradi, keyin esa individual darajaga o'tadi. Bu esa ta'lim va tarbiya jarayonining ijtimoiy tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi.** J. Piaget ning “Bolalar psixologiyasi” [4] (1969) asarida bolalar tafakkurining rivojlanish bosqichlari chuqur tahlil qilingan. Piaget bolani faol biluvchi subyekt sifatida ko'radi va u bilimni tayyor holda olmaydi, balki o'z faoliyati orqali quradi, degan fikrni ilgari suradi.

Uning nazariyasiga ko'ra, bolalar rivojlanishi to'rt asosiy bosqichdan iborat: sensomotor, preoperatsional, konkret operatsiyalar va formal operatsiyalar bosqichi. Har bir bosqichda bolaning tafakkuri va dunyoni idrok etish usuli o'zgaradi. Bu esa ta'lim jarayonini tashkil etishda yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Piaget yondashuvi ta'lim

jarayonida faol o'qitish, tajriba asosida o'rganish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishning ilmiy asosini yaratdi. Bu nazariya zamonaviy konstruktivistik ta'lim yondashuvlarining asosidir.

Abdulla Avloniyning mashhur “**Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir**” degan fikri uning “**Turkiy guliston yoxud axloq**”[5] asaridan olingan. Ushbu asar o'zbek pedagogik tafakkuri tarixida muhim o'rin tutib, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol etib tarbiyalashga bag'ishlangan. Avloniy ushbu asarida tarbiyani inson hayoti va jamiyat taraqqiyotining eng asosiy omili sifatida baholaydi. Uning fikricha, yoshlarning to'g'ri tarbiya topishi millatning kelajakdagi ravnaqi va saodatini belgilaydi.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy qarashlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ta'lim va tarbiya jarayonlari shaxs rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. G'oziyevning ishlari yosh davrlar psixologiyasiga asos bo'lsa, Vygotsky ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasini ochib beradi, Piaget esa bolaning faol o'rganish jarayonini asoslab beradi. Ushbu nazariyalar bir-birini to'ldiradi va zamonaviy pedagogik psixologiyaning ilmiy asosini tashkil etadi. Ularning umumiy xulosasi shundan iboratki, ta'lim jarayoni shaxsning psixik rivojlanishini tezlashtiradi, tarbiya esa bu rivojlanishni ma'naviy va ijtimoiy jihatdan shakllantiradi.

**Natijalar.** Yosh va pedagogik psixologiya fanida ta'limning o'rni hamda tarbiya jarayoni bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish jarayonida bir qator qo'shimcha ilmiy natijalarga ham erishildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki u shaxsning psixologik tuzilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur va idrok kabi bilish jarayonlari faol rivojlanadi, bu esa ularning umumiy psixik rivojlanishini tezlashtiradi.

O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayoni qanchalik to'g'ri tashkil etilsa, shaxsning rivojlanishi shunchalik samarali kechadi. O'qituvchining pedagogik mahorati, psixologik yondashuvi va o'quvchi bilan bo'lgan muloqoti ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillar ekanligi aniqlandi. Shuningdek, o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi tasdiqlandi. Tadqiqot davomida yana shunday natijaga kelindiki, tarbiya jarayoni shaxsning ichki qadriyatlar tizimini shakllantiradi va uning jamiyatdagi xulq-atvorini tartibga soladi. Axloqiy me'yorlar, ijtimoiy qadriyatlar va ma'naviy qarashlar aynan tarbiya jarayonida shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu jarayon oiladan boshlanib, maktab va keng ijtimoiy muhitda davom etadi.

Shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonlarining samaradorligi ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. O'quvchi yashayotgan muhit, oilaviy sharoit va atrofdagi ijtimoiy munosabatlar uning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Ijobiy muhit ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirsa, salbiy muhit bu jarayonni sekinlashtirishi mumkin. Tahlillar natijasida yana bir muhim jihat shundan iborat bo'ldiki, zamonaviy ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq bu jarayonda ham tarbiyaviy maqsadlar e'tibordan chetda qolmasligi kerakligi aniqlandi.

Yana bir natija sifatida shuni aytish mumkinki, ta'lim va tarbiya jarayonlarida motivatsiya juda muhim rol o'ynaydi. O'quvchining ichki qiziqishi, maqsadga intilishi va o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji uning o'qish samaradorligini belgilaydi.

Motivatsiya kuchli bo'lgan holatda o'quvchilar bilimni chuqurroq o'zlashtiradi va uni amaliyotda qo'llay oladi.

Umuman olganda, o'rganish natijalari shuni tasdiqladiki, ta'lim va tarbiya jarayonlari bir-birini to'ldiruvchi, uzviy bog'liq tizimdir. Ularning uyg'unligi shaxsning nafaqat intellektual, balki ma'naviy va ijtimoiy jihatdan ham yetuk bo'lib shakllanishini ta'minlaydi.

**Muhokama.** Yosh va pedagogik psixologiya fanida ta'limning o'rni hamda tarbiya jarayoni bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu ikki jarayonni alohida-alohida emas, balki yaxlit pedagogik tizim sifatida qarash zarur.

Amaliy kuzatuvlar va nazariy manbalar tahlili asosida ta'lim jarayoni shaxsning kognitiv rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lsa, tarbiya jarayoni uning shaxsiy fazilatlarini va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shu sababli ularning uyg'unligi pedagogik jarayon samaradorligining asosiy sharti hisoblanadi. Tahlil jarayonida Lev Vygotsky ning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Uning fikricha, ta'lim shaxs rivojlanishini oldinga suruvchi kuch bo'lib, o'qitish jarayoni to'g'ri tashkil etilganda o'quvchi o'zining real imkoniyatlaridan yuqoriroq darajada rivojlanishi mumkin. Bu yondashuv amaliyotda ham o'z tasdig'ini topadi, chunki o'qituvchi yordamida bajariladigan topshiriqlar o'quvchining mustaqil faoliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, Jean Piaget nazariyasi asosida olib borilgan muhokama shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni o'z faoliyati va tajribasi orqali quradi. Bu holat zamonaviy ta'limda konstruktivistik yondashuvlarning ahamiyatini oshiradi. Amaliy kuzatuvlarda ham faol o'qitish usullari qo'llanganda o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada yuqori bo'lishi aniqlandi. E.G'oziyev ilmiy qarashlari asosida shuni muhokama qilish mumkinki, yosh davrlar psixologiyasi ta'lim va tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Har bir yosh bosqichining psixologik xususiyatlarini hisobga olmasdan ta'limni tashkil etish kutilgan natijani bermaydi. Masalan, kichik yoshdagi bolalarda ko'rgazmalilik va o'yin faoliyati, o'smirlarda esa mustaqil fikrlash va muhokama qilish usullari samaraliroq hisoblanadi. Muhokama jarayonida yana shuni aniqlash mumkinki, tarbiya jarayoni ko'pincha ta'lim jarayoniga nisbatan sekinroq, ammo chuqurroq ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya orqali shakllangan axloqiy qadriyatlar shaxsning butun hayoti davomida uning xulq-atvorini belgilab beradi. Shu sababli tarbiya jarayonini faqat maktab doirasida emas, balki oila va ijtimoiy muhit bilan birgalikda olib borish zarur. Shuningdek, zamonaviy pedagogik amaliyotda texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishi bilan birga, tarbiyaviy jarayonni ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Biroq bu jarayonda nazorat va maqsadli yondashuv bo'lmasa, o'quvchilarda e'tiborning tarqalishi va yuzaki bilim olish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Umumiy muhokama shuni ko'rsatadiki, ta'lim va tarbiya jarayonlarining uyg'unligi shaxs rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi. Ularni bir-biridan ajratib qarash ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham to'liq natija bermaydi. Shu sababli zamonaviy pedagogik psixologiyada kompleks yondashuvni kuchaytirish va har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

**Xulosa.** Yosh va pedagogik psixologiya fanida ta'limning o'rni hamda tarbiya jarayoni bilan o'zaro bog'liqligini chuqur o'rganish natijasida shuni aniq xulosa qilish mumkinki, shaxsning to'laqonli rivojlanishi faqat ta'lim yoki faqat tarbiya bilan emas, balki ularning uzviy uyg'unligi asosida amalga oshadi. Ta'lim insonning bilim olish, fikrlash, tahlil qilish va intellektual salohiyatini rivojlantirsa, tarbiya uning ma'naviyaxloqiy dunyosini shakllantiradi, jamiyatga moslashuvini ta'minlaydi. Bu ikki jarayon bir-birini to'ldiruvchi yagona pedagogik

tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayoni to'g'ri tashkil etilganda o'quvchilarning bilish jarayonlari, ya'ni diqqat, xotira, tafakkur va idrok sezilarli darajada rivojlanadi. O'quvchi bilimni faqat eslab qoluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, solishtiruvchi va amaliyotda qo'llay oladigan shaxsga aylanadi. Bu esa ta'lim jarayonining rivojlantiruvchi funksiyasi mavjudligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tarbiya jarayoni shaxsning ichki dunyosini shakllantiruvchi asosiy omil ekanligi aniqlandi. Axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar, mas'uliyat hissi va vatanparvarlik tuyg'ulari aynan tarbiya jarayonida shakllanadi. Tarbiya faqat tashqi ta'sir emas, balki shaxsning ichki psixologik tuzilmasiga ta'sir etuvchi chuqur jarayon hisoblanadi. Lev Vygotsky nazariyasiga ko'ra, shaxs rivojlanishi ijtimoiy muhit va hamkorlikdagi faoliyat orqali amalga oshadi. Tadqiqot natijalari ham shuni tasdiqladiki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchining imkoniyatlarini kengaytiradi. Vygotsky tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasini" g'oyasi ta'lim jarayonida muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi.

Jean Piaget tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv rivojlanish nazariyasi ham ta'lim jarayonini tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, bola bilimni tayyor holda olmaydi, balki uni o'z faoliyati orqali yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, faol o'qitish usullari qo'llanganda o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshadi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi. E.G'oziyev ilmiy ishlari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, yosh davrlar psixologiyasi ta'lim va tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olish ta'lim samaradorligini oshiradi va tarbiya jarayonining ijobiy natijalarini kuchaytiradi. Masalan, kichik yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati orqali o'qitish samarali bo'lsa, o'smirlik davrida mustaqil fikrlash va muhokama usullari muhim ahamiyatga ega. Yana bir muhim xulosa shundan iboratki, ta'lim va tarbiya jarayonlarida motivatsiya asosiy o'rin egallaydi. O'quvchining ichki qiziqishi va o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi uning o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Motivatsiya yuqori bo'lgan sharoitda o'quvchi bilimni chuqurroq o'zlashtiradi va uni amaliyotda samarali qo'llay oladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. E.G'oziyev Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 120–135-betlar. [1]
2. E.G'oziyev Yosh davrlar psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 25–90betlar.[2]
3. Lev Vygotsky Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991. – 85–95-betlar.[3]
4. Jean Piaget Bolalar psixologiyasi. – Moskva: Prosveshcheniye, 1969. – 50–70-betlar.[4]
5. Avloniy, A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: Akademy Nashr, 2021. –176 b.[5]